



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGIDA
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI
RO'YXAT RAQAMI: 2089-2
2026 - yil 21 - Fevral

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRINING BUYRUG'I

O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash muassasalarida tug'ilganlik haqidagi tibbiy ma'lumotnoma, perinatal o'lim va o'lim haqidagi tibbiy guvohnomalarni berish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomaning 9-bandiga o'zgartirish kiritish haqida

O'zbekiston Respublikasining Oila [kodeksi](#) va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 25-dekabrda PQ-455-son "O'zbekiston Respublikasining "2025-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi [qaroriga](#) muvofiq **buyuraman**:

1. O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirining 2010-yil 27-fevraldagi 56-son buyrug'i (ro'yxat raqami 2089, 2010-yil 23-mart) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2010-y., 12-son, 87-modda) bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash muassasalarida tug'ilganlik haqidagi tibbiy ma'lumotnoma, perinatal o'lim va o'lim haqidagi tibbiy guvohnomalarni berish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomaning 9-bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“9. Tug'ilganlik haqidagi tibbiy ma'lumotnoma tug'ruq sodir bo'lgan tibbiy muassasalar tomonidan barcha tirik tug'ilgan bolalarga beriladi. Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda, onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi yoki onaning homiladorlik muddati 22 haftadan kam, bolaning bo'yi 25 smdan past, vazni 500 grammdan kam bo'lganda ushbu bola 168 soat davomida shifokor kuzatuvda bo'lishi zarur.

Tug'ilganlik haqidagi tibbiy ma'lumotnoma ushbu tibbiy muassasa shifokori, bir nafar shifokor ishlaydigan yoki tibbiy muassasada shifokor bo'lmagan (mehnat ta'tili, kasallik tufayli va boshqa sabablar) hollarda tug'ruqni qabul qilgan feldsher yoki akusher tomonidan beriladi.”

2. Mazkur buyruq O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi bilan kelishilgan.

3. Ushbu buyruq rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Vazir
05-Fevral 2026-yil
1-son



XUDAYAROV ASILBEK
ANVAROVICH

Kelishildi:

Rais
21-Yanvar 2026-yil



HAMRAYEV BEHZOD
SAYLIXONOVICH